

RAHMATLARDAN BARAKA TOPGAN OLIM

Abduvahob Madvaliyev

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori

instituti bo‘lim mudiri, filologiya fanlari nomzodi

Rahmatulla Barakayev O‘zbekiston Fanlar akademiyasining turli davrlarda turlicha atalib kelgan hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy jamoasiga iqtidorli va zahmatkash olim, jonkuyar va mehribon ustoz, mohir fan tashkilotchisi, qadrdon do‘st va ulfat, namunali oila boshlig‘i sifatida tanilgan ajoyib inson bo‘lib, u hozirgi kunlarda yelkasidagi 55 yillik mehnat yuki bilan o‘z tavalludining muborak 70 yilligini nishonlamoqda.

Rahmatulla 1954-yilda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida tug‘ilgan bo‘lib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutiga ishga kelguncha 1971–1975-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi pedagogika universiteti) ning o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini tugatgan, 1975–1980-yillarda Vobkent tumanidagi o‘rta umumta‘lim maktablarida ona tili va adabiyot o‘qituvchisi, maktab direktori o‘rinbosari, tuman xalq ta‘limi bo‘limi metodisti bo‘lib ishlagan.

Rahmatulla Barakayev 1980-yil oktyabr oyidan O‘z FA Til va adabiyot institutining Hafiz Abdusamatov, Malohat Abdurahmonova, Mamasodiq Husainov, Sohiba Irisxo‘jayeva, Ra‘no Karimboboyeva va boshqalar faoliyat ko‘rsatgan O‘zbek bolalar adabiyoti bo‘limida laborant, katta laborant, stajyor-tadqiqotchi, kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim vazifalarida ishlagan. 1994-yilda Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, filologiya fanlari doktori, professor A.H. Hayitmetov ilmiy rahbarligida “XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” mavzuida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilgan. Shu yildan boshlab O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti (keyinchalik Til va adabiyot instituti) ning ilmiy kotibligiga tayinlanadi va ushbu lavozimida 2018-yilgacha faoliyat ko‘rsatib, o‘zini mohir fan tashkilotchisi sifatida namoyon qildi. Keyingi yillarda, ya‘ni 2018–2020-yillarda Rahmatulla O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limiga rahbarlik qildi, 2021-yildan shu bo‘limning katta ilmiy xodimi lavozimida ishlab kelmoqda. Olim 2009-yili katta ilmiy xodim, 2022-yilda esa professor ilmiy unvonlariga ega bo‘ldi.

Men Rahmatulla bilan 1980-yilda, institutga ishga kelishi bilanoq tanishib, eski tanishlardek apoq-chapoq bo‘lib ketganman, chunki u ham men kabi ishga qabul qilish haqida buyruq chiqarilmasdanoq dalaga, paxta yig‘im-terimiga jo‘natilgan edi (Ko‘pincha ishga qabul qilish haqida buyruq chiqarmasdan turib, bo‘lajak xodimni paxta yig‘im-terimi va boshqa qishloq xo‘jalik ishlariga jalb qilish o‘tgan asrning

70–80-yillarida aksar ilmiy-tadqiqot institutlarida odat tusiga kirib qolgan edi. Men, marhum do‘stimiz, filologiya fanlari doktori I.Haqqulov va boshqa bir qator xodimlarimiz ham shu tarzda ishga qabul qilinganmiz. Shuning uchun ham institutga ishga joylashishning eng qulay payti kuz oylari bo‘lgan).

Demak, Rahmatulla bilan bir ilmiy dargohda ishlayotganimizga ham sal kam 45 yil bo‘libdi. Biz avval institutning ikki bo‘limida ishlovchi xodimlar sifatida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsak, 1991-yildan Til va adabiyot instituti alohida-alohida ikkita: O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti va O‘zR FA Tilshunoslik institutiga ajratilgan davrdan e‘tiboran men Tilshunoslik institutiga, Rahmatulla Adabiyot institutiga ilmiy kotib etib tayinlanganimizdan so‘ng yanada yaqinlashib, rahbariyat doirasida har bir ishda o‘zaro maslahatlashib, bir-birimizdan o‘rganib, bir-birimizga yordam berib, uzoq yillar filologiya fanini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, ularning o‘z muddatida bajarilishini ta‘minlash, sohada yetuk malakali ilmiy kadrlar tayyorlash ishlariga baholi qudrat munosib hissa qo‘shib kelganmiz.

R.Barakayev bilan ish faoliyatimizdagi yana bir o‘xshashlik asosiy ishimizga halal bermagan holda boshqa muassasa va tashkilotlarda o‘rindoshlik asosida ishlaganimizdir. Chunonchi, o‘tgan asrning 90-yillari va 2000-yillar birinchi o‘nyilligida har ikkalamiz ham Toshkent davlat sharqshunoslik institutida katta o‘qituvchi lavozimida ishlab, Rahmatulla o‘zbek adabiyoti va tarjimashunoslikdan, men rus guruhlarida o‘zbek tili, ish yuritish va o‘zbek-lotin yozuvini o‘rgatish bo‘yicha dars berganmiz. Ayni shu yillarda O‘zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazida yetakchi mutaxassis sifatida ishlab, test materiallarining sifatli va ishonchli bo‘lishiga hissa qo‘shganmiz, hatto R.Barakayev, N.Mahkamov va men – uchalamiz hamkorlikda “Navoiy gulshaniga sayohat” (mumtoz adabiyot bo‘yicha testlar to‘plami) qo‘llanmasini tuzganmiz. Bunday hamkorlik 12 jildli “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” ni nashr etish jarayonida ham davom etib, o‘zbek mumtoz adabiyoti, o‘zbek bolalar adabiyoti bo‘yicha lug‘at maqolalarining sifatli tayyorlanishida faol ishtirok etganmiz. Shuningdek, biz Rahmatulla bilan o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha repetitorlik sohasida ham o‘zaro hamkor bo‘lganmiz. Bunda Rahmatulla o‘zbek adabiyotidan, men o‘zbek tilidan abituriyentlarga saboq berganmiz. Asosiy ishdan tashqari paytlarda o‘rindoshlik asosida faoliyat yuritganimiz, yuqoridagi va boshqa ishlarda, albatta, o‘sib kelayotgan farzandlarimiz ehtiyojini qondirish ham ko‘zda tutilgan. Bunga qo‘shimcha qilib yana shuni aytish mumkinki, o‘tgan asr oxirlarida Rahmatulla nashriyotlarning buyurtmasi bilan, nashrga tayyorlanayotgan va tahrirtalab badiiy asarlarga taqrizlar yozish, ularni tahrir qilish, men esa tashkilot, idoralarning rasmiy hujjatlarini ruschadan o‘zbekchaga tarjima va tahrir qilish bilan ham qo‘shimcha daromad

topishga harakat qilganmiz. Nihoyat, Toshkent shahrida to muqim, alohida uy-joyga ega bo‘lmaguncha uyma-uy, kvartirama-kvartira ko‘chib yurib, ijarada yashaganlarimiz ham taqdirimizdagi o‘xshash jihatlardan biridir.

Bizning oilalararo aloqalarimiz, bordi-keldilarimiz ham namuna, ibrat bo‘larli darajadadir. Bu borada ham o‘xshashlik jihatlrimizdan yana biri shuki, har ikkalamizning ham farzandlarimiz to‘rttadan. Men Rahmatullaning farzandlari – o‘g‘li Sunnatulla, qizlari Bashoratxon, Sabohatxon va Inobatxonlarni bolalikdan yaxshi bilaman. Ularning hammasi oily ma‘lumotli, hozirda tegishli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishmoqda. Ushbu farzandlarining uylanish, turmushga chiqish to‘y-tantanalarida Rahmatullaning yonida yelkama-yelka turgan bo‘lsam, Rahmatulla ham mening barcha farzandlarim to‘y-tomoshalarida men bilan yonmayon turib, hatto to‘ylarni boshqarib borgan. Toshkentda va Buxoroda bo‘lib o‘tgan ana shunday to‘y-tomoshalar tufayli men Buxoro shahrida, Rahmatulla tug‘ilib o‘sgan Vobkent tumanida, u yerdagi ko‘plab ziyoratgohlarda bo‘ldim, ajoyib insonlar – Rahmatullaning akalari (Rahmatulla doim hurmatlab “Rajab bobo”, “Nazar bobo” deb ataydigan Rajab aka va Nazar akalar), opa-ukalari, singillari, jiyanlari bilan yaqindan tanishganman. Uning jiyanlaridan biri Nusratulla Barakayev ham (u hozirgi kunda fan doktori, nufuzli oily o‘quv yurtlaridan birining rektori) mening oilamda bo‘lib o‘tgan barcha marosimlarda Rahmatulla qatori xizmat qilgan. Xullas, do‘stim, hamkasbim Rahmatullaning oilasi, barcha oila a‘zolari men uchun, oila a‘zolarim uchun eng yaqin, eng qadrdon kishilarga aylangan.

Endi Rahmatulla Barakayevning ilmiy faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsam, u hozirgi kunda o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi va hozirgi muammolari, XX asr boshlaridagi o‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik bo‘yicha respublikamizdagi taniqli, yetakchi mutaxassislardan biridir. Shu bilan birga, o‘zbek bolalar adabiyotini tadqiq etish bo‘yicha o‘ziga xos maktab yaratgan tinib-tinchimas olim desam, xato qilmayman.

Albatta, bu darajaga, bu martabaga erishish oson bo‘lmagan. Lekin, ko‘rib turibmizki, Rahmatulla hayot qiyinchiliklarini, ilmiy ijod va tashkilotchilik mashaqqatlarini yengib o‘tib, o‘zbek bolalar adabiyotini o‘rganishda ulkan marralar, yutuqlarga erishdi. Uning 10 dan ortiq monografiya va risolalari, respublika va xorij jurnallari va ilmiy to‘plamlarida e‘lon qilingan 270 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarining aksariyati o‘zbek bolalar adabiyoti tadqiqiga bag‘ishlangan. Uning o‘zi va hammualliflikda nashr ettirgan “Jonajonim, she‘riyat” (1997), “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy” (2004), “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (2014; 2017), “Abdulla Avloniy. Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” (2018), “Bolalar adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik” (Buxoro, 2019; 2021; Toshkent, 2022), “Badiiy tasvir mahorati” (2021)

kitoblari, “Guliston” – “Shavqi Guliston” – “Turkiy Guliston” (2003), “Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud Axloq” (2004), “Dunyoni beraylik bolalarga” (2006), “Bolalar qalbining chechaklari” (2012), “Zafar Diyorning zafarli ijodi” (2012), “She’r – ko‘ngil ko‘zgusi” (2015), “Boshlang‘ich sinflarda Anvar Obidjon ijodining o‘rganilishi” (2016), “Anvar Obidjonning nurli ijodi” (2017), “Bugungi o‘zbek bolalar she‘riyatida badiiy tasvir” (2017), “G.G‘ulom ijodi va o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyoti” (2017), “O‘zbek ma‘rifatparvarligi va jadidchiligi charog‘boni” (2018), “Usuli jadidiya” kitoblaridagi hamd va salovotlar “ (2019), “O‘zbek bolalar nasrining peshvosi” (2023) kabi va boshqa maqolalari fikrimizning isbotidir.

Rahmatulla Barakayev o‘z ilmiy izlanishlarining asosiy obyekti – o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyoti tarixi muammolarini o‘rganib, umumlashtirgan. XX asr va istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyati takomil xususiyatlarining o‘ziga xos belgilarini ilmiy-nazariy jihatdan ko‘rsatib bergan. O‘zbek bolalar adabiyotini yaratgan, uning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Qudrat Hikmat, Ilyos Muslim, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Miraziz A‘zam, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev, Dilshod Rajabov, Abdurahmon Akbar va boshqa shoirlar ijodining o‘zbek bolalar she‘riyati rivojidadagi o‘rni va rolini ko‘rsatishga erishgan.

Rahmatulla ilmiy faoliyatining muvaffaqiyatini, kitob va maqolalarining yuqori sifatini ta‘minlovchi omillardan biri uning X.To‘xtaboyevdan boshlab keying davr o‘zbek bolalar adabiyoti bilan shaxsan, yaqindan tanish bo‘lganligidir. Olim va shoirning bunday hamkorligi, ular o‘rtasidagi ochiq muloqot shoir fikrini, she‘r mazmunini to‘g‘ri talqin qilishga, muayyan she‘rdan to‘g‘ri xulosa chiqarishga katta yordam bergan bo‘lishi mumkin. Shuni aytish kerakki, Rahmatulla sabab men ham X.To‘xtaboyev, T.Adashboyev, S.Barnoyev, A.Obidjon, D.Rajab kabi yozuvchi va shoirlar bilan yaqindan tanishib, ko‘p bor hamsuhbat bo‘lganman.

Rahmatulla ham o‘z ustozlari A.H.Hayitmetov kabi qattiqqo‘l, talabchan, ayni paytda mehribon ustozlardan hisoblanadi. Uning ilmiy rahbarligida filologiya fanlari nomzodi hamda filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiyalar himoya qilgan aspirant va tadqiqotchilar F.Jo‘rayeva, B.Ashurov, D.Xoliqova, D.To‘rayeva, Z.Mamatalimov, D.Igamuratova, J.Lutfullayevlar hozirgi kunda yurtimizning turli oily o‘quv yurtlarida samarali ishlab, o‘z sohalarini – o‘zbek bolalar adabiyotini targ‘ib qilib kelmoqdalar.

Rahmatulla nafaqat respublikamiz miqyosidagi, balki xorijdagi 10 dan ortiq ilmiy anjumanlarda ham (Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va

Turkiya davlatlarida bo‘lgan xalqaro ilmiy anjumanlarda) o‘zbek mumtoz va hozirgi adabiyoti, jumladan, bolalar adabiyotining dolzarb muammolariga oid ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan.

R.Barakayev adabiyotshunos olim va adabiy tanqidchi bo‘lish bilan birga jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. U O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashi a‘zosi, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali tahrir hay‘ati a‘zosi, o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019 Fil. 46.01 raqamli ilmiy kengash ilmiy kotibi, shu ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

Rahmatulla Barakayev o‘z ish faoliyati davomida talabchan va intizomli ilmiy xodim, davlat va jamoat ishlariga yuksak mas‘uliyat bilan yondashuvchi halol, qat‘iyatli va fidoyi olim ekanligi bilan Institut jamoasi oldida katta obro‘-e‘tibor qozongan. U o‘zbek bolalar adabiyoti sohasidagi tadqiqotlari va jamoatchilik faoliyati uchun 2000-yilda 2-darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Butun umrini o‘zbek bolalar adabiyoti va tarjima masalalari tadqiqiga, tashkilotchilik va jamoat ishlariga bag‘ishlagan do‘stim va hamkasbim Rahmatulla Barakayevni qutlug‘ 70 yoshi bilan chin dildan muborakbod etar ekanman, o‘zim va oila a‘zolarim nomidan unga uzoq umr, sihat-salomatlik, oilaviy tinchlik va farovonlik, bundan keyingi ilmiy faoliyatida ulkan yutuqlar tilayman.